

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 12-03-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

201519 - SONLI

Obyekt nomi: Ўз ер участкасида автотураргох (қурилиш ости майдонига лойихалаштириш), пастки қаватларида офис, савдо ва маиший хизмат кўрсатиш бўлган кўп квартирали турар жой бинолари сифатида ихтисослаштириб қайта қуриш	
Buyurtmachi:	ELEGANCE HOUSES MCHJ
Bosh loyihachi:	"CITY STROY PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender savdo natijalari buyicha aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	000895

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Yunusobod tumani bo'liming 2023-yil 14-sentyabrdagi 1726266-130394-sonli ruxsatnomasi.
- 1.2. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2023-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.
- 1.3. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023-yil 18-sentyabrdagi 1726-1726266-92129-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.4. 2023-yilda "GEO ENGINEERING LOYIHA" MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.
- 1.5. "Hududgaz Poytaxt" GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2024-yil 23-yanvardagi 052056-sonli texnik sharti.
- 1.6. "Hududiy Elektr Tarmoqlari" AJ "Toshkent shahar hududiy" filiali elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2024-yil 15-yanvardagi 05-0067-sonli texnik sharti.
- 1.7. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJning 2024-yil 30-yanvardagi 270/4-262-sonli texnik sharti.
- 1.8. Loyihachi va buyurtmachi o'rtasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2023-yil 9-oktyabrda tuzilgan 38RP/23-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra "ishchi loyiha" ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. "CITY STROY PROJECT" MChJ tomonidan 2023-yil ishlab chiqilgan energetik pasporti.

2.3. "ELEGANCE HOUSES" MChJning 2023-yil 26-dekabrdagi 7-sonli buyurtma xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Tashqi havo haroratining qishki xisobi – minus 140S.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Qurilish maydonining zilzilabardoshligi – 9 ball.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Bosh reja loyihasi va topshiriqlari va buyurtmachi tomonidan berilgan dastlabki ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda quyidagilar nazarda tutilgan:

Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Jomiy MFY Usta Shirin ko'chasi 102-uy va 104-uy larning yerto'la qavatida avtoparking, pastki qavatlarida ofis va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p kvartirali uy-joy binolari sifatida rekonstruksiya qilish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyiha amaldagi normalar, qoidalar va standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Xonalar soni – 126 dona bo'lib:

1 xonali xonadonlar soni – 7 dona;

2 xonali xonadonlar soni – 84 dona;

3 xonali xonadonlar soni – 35 dona.

Bino 4 dona blokdan iborat:

1-chi blok, D-I va 1-4 oq bo'ylab o'lchamlari 17,8x19,2m ;

2-chi blok, A-G va 1-6 oq bo'ylab o'lchamlari 19,2x29,0m;

3-chi blok, A-G va 7-10 oq bo'ylab o'lchamlari 19,2x17,8m;

4-chi blok, A-G va 11-14 oq bo'ylab o'lchamlari 19,2x17,8m.

Bolalar maydonchasi.

Besedka (2ta).

3.3. Arxitekturaviy yechimlar.

Bino – 9 qavatli turar-joy binosi pastki qavatlarida ofis va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish, yerto'la qismida avtoturargoh rejalashtirilgan, rejada bino G shaklda bo'lib, A/1-I/1 va 1/1-14/1 oqlar bo'ylab o'lchamlari 42,4x73,0m. Yerto'la balandligi po'ldan shiftgacha $h=3,5$ m. 1-qavat balandligi po'ldan shiftgacha $h=3,9$ m. 2-qavat balandligi po'ldan shiftgacha $h=3,6$ m. 3-4-chi qavatlar balandligi po'ldan shiftgacha $h=3,3$ m. 4-8-chi qavatlar balandligi po'ldan shiftgacha $h=3,15$ m. 9-chi qavat balandligi po'ldan shiftgacha 3,3m. Texnik qavat balandligi 2,5m. Binoda 4 dona lift honasi mavjud.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish maydoni – 1 939,7m².

Umumiy maydon – 1 354,1 m².

Qurilish xajmi – 74678,45m³.

Ichki pardozlash:

Devorlar va pardevorlar – GKL, suvoq.

Pol – keramik plitka, laminat, beton qorishma.

Eshiklar – Plastik-yog'och, MDF.

Shift – GKL suvoq, Sayding.

Tashqi pardozlash:

Devorlari – Monolit temir beton, gazablok 250mm, g'isht, Suyuq travertin.

Poypesh – Granit plita.

Eshiklar – Metal.

Oynalar – Plastik.

Vitraj – Alyumin.

Binoga kirish qismida – zina mavjud (ustki qoplamasi granit).

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Konstruktiv bo'lim loyihalash topshirig'i va muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa asosida ishlab chiqilgan.

Turar-joy binosi 9 qavatli bo'lib, podvalli.

Poydevorlar – qalinligi 1000 mm bo'lgan monolitik temir-beton plita sinfi B25.

Ustunlar - 600x600mm, 500x500mm bo'lgan monolitik temir-beton sinfi B25.

Rigel: - 500x500mm betondan yasalgan monolitik temir-beton sinfi B25.

Qattiqlik diafragmasi – monolit temirbeton qalinligi 400mm sinfi B25.

Devorlar g'ishtdan yasalgan, M75 M50 eritmasida.

Bo'linmalar-M50 eritmasidagi g'isht M75.

Bir - birining ustiga chiqish-dumaloq ichi bo'sh plitalardan UTR 46.1-96, v.1.

Zinalar – monolit temirbeton.

Tom yopish-tekis, yumshoq tom yopish.

Lift shaxtasi: temir-beton monolit (ishlab chiqaruvchining topshirig'idan keyin o'lchamlarni aniqlang).

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Yong'iniga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong'in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavf turi – S1.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ichki muhandislik tizimlari.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi, yong'inni avtomatik o'chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi).

4.2. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko'rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 50mm qalinlikdagi bazalt jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Loyihaga ko'ra binoning tom qismiga 16 dona quvvati 280 Vt bo'lgan quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi xuzuridagi kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2023-yil 5-oktabrdagi 97413306-sonli xulosa).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz topshirilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida ekspert mutaxassislar xulosalari asosida ishchi loyihasiga quyidagi tuzatishlar kiritildi:

- axlat yig'ish maydonchasi ko'rsatildi;
- albom chizmalar PDF formatida taqdim etildi;
- tom yopish rejasida pol otmetkasi ko'rsatildi;
- elektrika bo'yicha texnik shart taqdim qilindi;
- poydevorning yon gidroizolyatsiyasi ko'rsatildi;
- poydevorni mustahkamlashda himoya qatlami ko'rsatildi va boshqalar.

6.3. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.4. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda Davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi olinishi shart, ushbu talab bajarilmasa yig'ma ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar yuqoridagi ushbu talablar bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu yig'ma ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da "Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi".

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent shahar Yunusobod tumani Jomiy MFY Usta Shirin ko'chasi 102-uy va 104-uylarning yerto'la qavatida avtoparking, pastki qavatlarida ofis va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish bo'lgan ko'p kvartirali uy-joy binolari sifatida rekonstruksiya qilish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Xudayberganov Xayrullo Ollaberganovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Ibragimov Ismoil Xabibullayevich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Ubaydullayev Azizbek Baxodirovich, Musayev Rustam Talatovich